

## HOW TO BUILD A FIGHTING SPIRIT IN THE MILITARY PHILOSOPHICAL AND THEORETICAL SIGNIFICANCE

Kuchatov Khasan Bakhtiyor Oglu

Senior Lecturer of the Department of Material Supply at HX and MU

### Abstract

The article contains thoughts and opinions about the philosophical-conceptual nature of the fighting spirit of a military serviceman, its place in civilizational paradigms, its components, psychological foundations, and its significance today.

**Keywords:** warrior spirit, courage, will, devotion to duty, virtue, risk - danger, inner mental strength, battlefield, stress tolerance, willpower, collective responsibility, emotional control

### Introduction

#### Annotatsiya

maqolada jangchi ruhining falsafiy-konseptual mohiyati, sivilizatsion paradigmalaridagi o'рни, tarkibiy qismlari, psixologik asoslari hamda hozirgi kundagi ahamiyati to'g'risida fikr va mulohazalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** jangchi ruhi, jasorat, iroda, burchga sadoqat, fazilat, xavf - xatar, ichki ruhiy kuch, jang maydoni, stressga chidamlilik, irodaviy barqarorlik, jamoaviy mas'uliyat, emotsional nazorat.

#### Аннотация

в статье излагаются размышления и суждения о философско-концептуальной природе боевого духа военнослужащего, его месте в цивилизационных парадигмах, его составляющих, психологических основах, а также его значение.

**Ключевые слова:** воинской дух, мужество, воля, преданность долгу, риск - опасность, внутренняя сила духа, поле боя, устойчивость к стрессу, сила воли, коллективная ответственность, эмоциональный контроль.

Bugungi kuning karakterli xususiyatlaridan biri shuki – kurash asosan tafakkur maydonlarida, ya'ni inson ongi va qalbini egallash ustidan kechmoqda. Yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan harbiy xizmatchilar Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan islohotlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblandi. Bu borada muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagi fikrni aytib o'tgan. Harbiy xizmatchilarning

ruhiy jihatdan chidamli bo'lishi haqida gapirganda, keyingi paytda dunyoning turli mamlakatlarida sodir bo'layotgan qurolli to'qnashuvlarda ko'zga tashlanayotgan bir holatga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Ya'ni jangovar harakatlar davomida shaxsiy tarkib o'rtasidagi yo'qotishlarning asosiy qismi kuchli ruhiy ta'sir va zarbalar bilan bog'liq ekani ma'lum bo'lmoqda. Bunday ruhiy jarohatlarning hatto tinch hayot sharoitida ham davolash juda juda ham qiyin. Mazkur maqolada harbiy xizmatchining jangovar ruhining falsafiy-konseptual mohiyati, sivilizatsion paradigmalardagi o'rni, tarkibiy qismlari, psixologik asoslari hamda hozirgi kundagi ahamiyati to'g'risida fikr va mulohazalar yoritamiz.

Jangchi ruhi – uning ma'naviy-axloqiy barqarorligi, jasorati, irodasi, burchga sadoqati, vatanni himoya qilishdagi qat'iyati kabi fazilatlarni o'z ichiga olgan murakkab falsafiy-fenomenologik tushuncha hisoblanadi. Ushbu fenomen faqat harbiy muhitda emas, balki keng jamiyatning madaniy, ma'naviy va sotsial strukturasi ham muhim o'rin tutadi. Asosiy mohiyati inson irodasining chegarasiz imkoniyatlari, xavf-xatarni yengish qobiliyati va yuksak axloqiy pozitsiyani saqlay olish salohiyati orqali namoyon bo'ladi. Falsafa ta'limotlarida insonning ichki ruhiy kuchlari, irodasi va ma'naviy mezonlari masalalari muhim o'rin egallaydi.

Xususan, Aristotel, Aflotun, Forobiy, Ibn Sino, Jon Lokk, Immanuel Kant kabi mutafakkirlar inson qiyofasi, axloq, burch, jasorat kabi tushunchalarni fundamental falsafiy kategoriya sifatida yoritgan. Ularning fikricha, haqiqiy jasorat o'z xohishini ehtiyotkorlik bilan uyg'unlashtirish, xavfni anglagan holda burchni bajarish, ma'naviy ustunlikni saqlab qolish qobiliyatidir.

Harbiy xizmatchilarda jangovar ruhni shakllantirish muammosi har doim davlatning harbiy xavfsizligi, vatanparvarlik siyosati, insonning ma'naviy-ruhiy barqarorligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan dolzarb masaladir. Harbiy ruh birgina psixologik holat emas, balki shaxsning falsafiy dunyoqarashi, ma'naviy qadriyatlari, ijtimoiy ong darajasi va mafkuraviy tayyorgarligini o'zida mujassamlashtiradi.

Jangovar ruh tushunchasining falsafiy talqinini ko'rib chiqamiz, olimlarimiz tomonidan u quyidagi ifodalangan.

**Jangovar ruh** - bu harbiy xizmatchining axloqiy ongida mujassam bo'lgan:

vatanparvarlik, burch hissi, jasorat, o'zaro yelkadoshlik, qat'iyat, ruhiy tayyorgarlik, irodaviy bardoshlilik singari fazilatlarning uyg'un tizimidir.

Falsafiy nuqtai nazardan, jangovar ruh - bu **insonga hayotdan ham muhimroq bo'lgan qadriyatlarni anglatadi.**

Harbiy xizmatchilarda jangovar ruhni shakllantirishda bu boradagi tushunchalarning harbiy xizmatchilar tomonidan bilishi uni anglashi muhim ahamiyatga ega. Quyidagi tushunchalarni harbiy xizmatchilar bilishi zarur hisoblanadi.

**milliy rux**, - millatning ichki ruxiy xolati, xis-tuygulari,

ma'naviy dunyosi, uy-fikrlari, maxsadi va kayfiyatini ifodalovchi tushuncha;

**milliy iftixor** - millatga xos ma'naviy va moddiy yutux, muvaffaqiyat bilan faxrlanish

tuygusini ifodalaydigan tushuncha;

**milliy gurur** - shaxs, ijtimoiy guruxning muayyan millatga mansubligidan faxrlanish xissi;

**jangovar rux**-xarbiy xizmatchilar va bulinmalarning ogir va murakkab vaziyatda jismoniy va ruxiy zurixishlarni yengib utib, jangovar vazifani bajarishga shayligini xamda galabaga bulgan ishonchini anglatadigan tushuncha;

**axloxiy-ruxiy** xolat-xarbiy xizmatchi va bulinmalarning xar xanday vaziyatda uz oldiga xuyilgan jangovar-xizmat vazifalarini muvaffaxiyatli bajarishga shayligini namoyon etadigan axloxiy va ruxiy xobiliyatlar kursatkichi;

**axloxiy-ruxiy tayyorgarlik** - boshxaruv organlari xamda barcha bugindagi komandir va boshlikdar tomonidan turli sharoitlardagi jangovar tayyorgarlik va jangovar-xizmat faoliyati davomida xarbiy xizmatchilarda yuksak ma'naviy, ruxiy va professional sifatlarni takomillashtirishga xaratilgan tizimli faoliyat;

**yot g'oyalarga xarshi immunitet** - xarbiy xizmatchi va bulinmalar shaxeiy tarkibini turli salbiy axborotlar ta'siridan ximoya xilishga xizmat xiladigan goyaviy-nazariy xarashlar va xadriyatlar tizimi.

Amir Sohibqiron lashkar to'plab jang oldidan shunday dedi: "ishni kechiktirishda ofat ko'pdir. Aqilli kishi bugungi ishni ertaga qo'ymaydi. Chunki erta o'z ishini o'zi bilan birga olib keladi". Eshitmaganmisizki podshohlarning biridan davlat qaytib, zamonanaing qo'li uni izzat taxtidan xorlik tuprog'iga irg'itgach, undan so'rabdilar: "nega sen bu kunga qolding, mamlakatning zavoliga nima sabab bo'ldi?" u javobida: "**uch odat shumligidan baxtu saodat ipining uchini qo'ldan berdim:**

**birinchisi** – donolarning pandini quloqqa olmadim va mehribon nasihatgo'ylar so'zidan yuz o'girdim;

**ikkinchisi** – nafsim nimagaki moyil bo'lsa, ko'nglim u tomonga rag'bat qilsa, oqibatini o'ylamasdan u ishga kirishdim va nafsimni qondirdim;

**uchinchisi** – bu kungi qiladigan ishni ertaga qoldirdim va muhim ishlarning tadbirida sustlik qilib orqaga surdim". Amir Temurning bu o'giti aynan komandirlarning kundalik faoliyatini amalga oshirishda qo'l keladi.

Amir Sohibqiron ikki yuz kishi bilan qolgan vaqtda, Qamariddin payt poylab, to'satdan muntazam lashkari bilan etib keldi. Shunday bir holatda Amir Sohibqiron dilga quvvat berib, mardonalik ko'rsatish va Tangri hazratiga tavakkal qilishdan o'zga biror chora yo'qligini ko'rди. U o'sha kichik to'dani yosmishiy etib, ularning ko'nglini ko'tarib aytdi: "**Zafar topish va g'alaba qozonish lashkarning ko'pligida emas, balki Tangri hazratning qo'llab-quvvatlashidadir. Mardona bo'linglar, agar ozgina sustlik qilsak, ish qo'ldan ketadi**". Lashkarning barisi jonbozlik ko'rsatib olg'a qadam tashladilar va hamla qilib zo'r jangga kirishdilar. Ular haqiqatda madligu mardonalik ko'rsatib, yovuz niyatli dushmandan o'chlarini oldilar va nusratu zafar yorligida uning lashkarini qochirdilar.

**Zahiriddin Muhammad Boburning jangovar faoliyati tahlili har bir bo'lajak qo'mondon uchun quyidagi urushning asosiy qonuniyatlarini tushunib yetishni belgilab beradi:**

**Birinchidan**, artilleriya, piyoda qo'shinlar va muhandislik qo'shinlari roli va barcha bo'linmalarning o'zaro hamkorligi, shuningdek, zamonaviy o't ochish qurollarning roli harbiy qarama qarshiliklardagi g'alabaning asosiy kafolati.

**Ikkinchidan**, har qanday jangovar harakatlarda bo'linmalarning keng miqyosda manyovr qo'llashi, shuningdek dushman ortidan kuchli zarba berish;

**Uchinchidan**, doimiy ravishda jangovar tizimini shakllantirib borish, qurol yarog'larni va harbiy texnikalarni doimiy ravishda modernizatsiyalash, qiyin sharoitlarda qo'shinlarga rahbarlik qilish va boshqarish va jangovar amaliyotlar xususiyatidan chiqib o'z vaqtida jangovar nizom va yo'riqnomalarga o'zgartirish kiritib borish.

**To'rtinchidan**, jangda chuqur bilimga ega bo'lgan komandirlar, zarur vaqtlarda kerakli qaror qabul qila oladigan, belgilangan har qanday vazifani bajara oladigan yaxshi tayyorlangan liderlar qo'shinlarga har doim zarur ekanligini tushuntirish.

Yuqorida keltirilgan barcha xususiyatlarni Bobur armiyasining janglarida kuzatishimiz mumkin. Umumiy qilib aytganda, Bobur qo'shini olib borgan janglari o'z davrining professional armiyasi bo'lgan, o'z navbatida, O'rta asrlarda Markaziy Osiyo va Hindiston mamlakatlarida yangi davr professional va muntazam armiyasi ko'rinishini so'zsiz namoyon qildi.

**Boburning buyuk sarkarda sifatida qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlarini ta'minlagan omillar quyidagilarda namoyon bo'ladi:**

yuksak harbiy mahoratga ega bo'lganligi, qo'shini esa o'z davrining ilg'or o'q otar qurollari bilan qurollanganligi;

jang paytida pozitsiyalarni bir joyga to'plaganligi va piltalarni miltiqlar bilan qurollangan o'qchilar bilan mustahkamlaganligi;

qanotlardan xavf tug'diruvchi "to'lg'ama" taktikasidan oqilona foydalanganligi;

dushman manyovrlarini cheklab qo'yish uchun joy sharoitlaridan mohirlik bilan foydalanganligi.

U o'z qo'shinidan kattaroq bo'lgan lashkarga qarshi kurashishdan aslo qo'rqmas, hamisha raqibining nozik va kuchli joylarini anglab olishga, undan jang jarayonida foydalanishga harakat qilgan. Bundan tashqari, Zahiriddin Muhammad Bobur **chidamlilik, matonatlik, jasurlik, o'limga tik qarash, o'ziga va o'z taqdiriga ishonish** kabi xislatlarga ega ediki, bu fazilatlar doimo unga kishilarni olg'a etaklash imkonini bergan.

Boburning sarkarda sifatidagi muvaffaqiyatlarining kaliti – bu cherikni, ya'ni qo'shinni ko'nglini olmoqligida bo'lgan. Uning askar ko'nglini olmog'ining bosh mezonini kishining qardandligi, millati va nasabiga qarab emas, balki unga – shohiga **sadoqat, mardligi, fidoyiligi, vafodorligi, davlat himoyasiga qo'shgan hissasi** bilan belgilangan.

Zahiriddin Muhammad Boburning jang olib usulini, armiya tizimini tashkillashtirishni, qo'shinlarni boshqarish va hamkorlik qilish taktikalarini va strategiyasini o'rganib quyidagicha xulosa qilish mumkin:

**Birinchidan**, Bobur qo'shinlarida mavjud bo'lgan o'q otar qurollar mavjudligi va bunda qurollar hind hukumati va armiya rahbarlari uchun mutlaqo notanish bo'lganligi, Rajputlarnig shaxsiy jasorati va son jihatdan ko'pligi ham ilg'or qurollar bilan qurollangan dushman qo'shiniga bas kela olmadi.

**Ikkinchidan**, Bobur qo'shini tartibli va tashkiliy jihatdan ustunligi, har bir jangchi o'zining vazifasini aniq bilgan. Hind rajputlari esa qo'rquv va sarosima bilan jang olib borgan.

**Uchinchidan**, jang olib borish jarayonida Boburning taktikasi bir chiziqda jang olib borgan hind armiyasi usulidan ko'ra samarali bo'ldi. Jang davomida Rana Sanga xech qanday manyovr olib bormagan va uning kavaleriyasi o'z kuchini front jangida yo'qotdi va jangovar fillari mushket va to'plar ovozidan qo'rquvga tushgan.

**To'rtinchidan**, Bobur jang oldidan o'z armiyasini ma'naviy - ruhiy tomondan ruhlantirib turgan va bu jang oldidan o'z armiyasini kayfiyatiga ko'tarinkilik olib kirgan.

**Beshinchidan**, Bobur dushman qo'shini orasida yashirin qarama - qarshilik keltirib chiqarishni uddalagan va buning natijasida dushman qo'shini orasida bir qancha bo'linmalarni o'z tomoniga og'dirib olgan.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlab o'tish joizki, bugungi kunda global axborot makonidagi qarama-qarshilik, inson ongi va qalbi uchun kurash kuchayib borayotgan mafkuraviy kurash maydonida harbiy xizmatchilarda mustahkam iroda, Vatanga sadoqat hamda jangovar ruhni yuksaltirish dolzarb bo'lib qolmoqda. Harbiy xizmatchilarda jangovar ruhni yuksaltirishda buyuk ajdodlar jasorati muhim rol o'ynaydi. Bizning buyuk tariximizdagi milliy qahramonlar va sarkardalarning ko'rsatgan jasorati va matonati hamda vatanparvarligi harbiy xizmatchilarning jangovar ruhini yuksaltirishga bosh omil bo'lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 sentabrdagi "Harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-371-son qarori XDFU.
2. Sh.M Mirziyoyev. Qurolli Kuchlarni rivojlantirish borasidagi ishlarni sarhisob qilish, yangi vazifalar belgilash bo'yicha nutqi./Sh.M Mirziyoyev// Xalq so'zi, 2021 yil15-yanvar.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1990. – 368 b.
4. Nizomiddin shomiy. Zafarnoma. Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti, 1996. B.
5. Safarov A. Vatan omon bo'lsin. – T.: Sano-Standart, 2018. –180. b
6. Temur tuzuklari. – Toshkent: Sharq. 2018. – 144 b.